

5-dars. Yassi va hajmli shakllar

Tayanch soʻzlar:




– yassi shakllar



– hajmli shakllar



Shakllar qanday tartibda joylashtirilgan?



1. **Tepada, pastda, oʻngda, chapda, oldinda, orqada** soʻzlaridan foydalangan holda ushbu yodgorliklar haqida gapirib bering. Bu yodgorliklarda qanday hajmli shakllarni koʻrish mumkin? Quyida berilgan jadvalda ularni boʻyang.



**Mustaqillik va ezgulik
monumenti**



**“Jasorat”
monumenti**

YASSI


doira		
oval		
romb		
kvadrat		
uchburchak		
toʻgʻri toʻrtburchak		

HAJMLI

shar		
silindr		
piramida		
kub		
konus		
kuboid (toʻgʻri burchakli parallelepiped)		



2. Predmetlar bilan ularga mos shakllarni chiziqlar yordamida tutashtiring.




3. Ushbu minorani yasash uchun qanday shakllar kerak bo'lgan?

Minorada nechta kub bor?

Qanday kub ko‘proq: qizilmi, sariqmi yoki yashilmi?

Eng balandda qanday shakl turibdi?

Eng pastki qatorda nechta kub bor?



4. a) Chap tomondagi piramida halqalari rangini kattasidan kichigiga qarab ketma-ketlikda aytib bering.

b) O'ng tomondagi piramidaning halqalarini shunday bo'yangki, u chap tomondagi piramida halqalari bilan bir xil bo'lsin.



5. Ushbu shaklni yasash uchun nechta kub kerak bo'ladi? Shuncha katakni bo'yang.

[illegible]